

Taqrizchi- N.D.Qultasheva s.f.f.d (PHD), Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn Instituti dotsenti

Homidova Shaxnoza Ravshan qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va Dizayn instituti San'atshunoslik va Muzeyshunoslik fakulteti; San'at jurnalistikasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

SHARQ RASSOMI IJODI MENING NIGOHIMDA

ANNOTATSIYA: O'zbekiston rangtasvirida rassomlar turli xil janrlarda ijod qilishadi. Tasviriy san'atning deyarli barcha yo'nalishlarida o'zbek rassomlarini ijodiy asarlarini kuzatish mumkin. Ushbu maqolada ilk bor Sharq miniatyurasiga tayangan holda portret, maishiy janrdagi o'zgacha asarlarini mahobatli rangtasvirda aks ettirgan, umri davomida ijoddan to'xtamasdan samarali ijod qilgan rassom Chingiz Ahmarov haqida san'atshunoslik mulohazalar taqdim etiladi.

АННОТАЦИЯ: В живописи Узбекистана художники творят в разных жанрах. Творчество узбекских художников можно увидеть практически во всех областях изобразительного искусства. В данной статье представлен художник Чингиз Ахмаров, впервые основавший восточную миниатюру, представивший в величественных красках особые произведения портретно-бытового жанра и эффектно творивший на протяжении всей своей жизни.

ABSTRACT: In the painting of Uzbekistan, artists create in different genres. The creativity of Uzbek artists can be seen in almost all areas of fine art. This article presents the artist ChingizAkhmarov, who first founded oriental miniatures, presented special works of the portrait and everyday life genre in majestic colors and created spectacular works throughout his life.

Kalitso'zlar: ChingizAhmarovijodihaqida, yaratilgannodirasarlari, rafiqasi Shamsiro'y Hasanov abilan tanishuv, mukofotlari.



Chingiz Ahmarovdan me'ros qolgan ko'plab beba ho dastgohli va mahobatli rangtasvir ishlari o'zida hayrotomus obraz va syujetlarni ifodalaydi. Uning qalamiga mansub kartinalarning umumiy manzarasi rassom ijodiy me'rosi yaxlitligi va noyobligini ko'rsatadi.

(Chingiz Ahmarov: Kumush asr)

Chingiz Ahmarovning ijodi o'zbek tasviriy san'atining milliy o'ziga xosligi borasida xalqning boy va go'zal badiiy me'rosining ilg'or an'analarini hozirgi zamon san'atiga ijodiy singdirishda faol xizmat qilgan. Meni doimo hayratga solib kelgan rassom Chingiz Ahmarov noodatiy uslubga qo'l urganligi, uning asarlarida boshqa bir ijodkorning asarlarida mavjud bo'limgan holatlar hamda uslublarni kuzatish mumkin. Tasviriy san'atning o'zgacha turi bu rangtasvirdir. Rassom rangtasvirda ijod qilib, unga yangilik kiritdi desak mubolog'a qilmagan bo'lamiz. Chunki Chingiz Ahmarovni miniyatURA asarlarini mahobatli rangtasvirda aks ettirgan rassom sifatida mashhurdir.

Muzeylarda, teatrلarda va hattoki o'quv binolarida ham rassom asarlaridan ko'chirmalarni ko'rish mumkin. Ularga qarab inson zavqlanadi va shuningdek ilhomoladi. Nafis chizgilar bilan o'zaro uyg'un osoyishta ranglar majmui har qanday tomoshabinni ko'zini quvontiradi. Ayniqsa, ijodkor uchun bu kabi asarlarni tomosha qilish unga o'zgacha bir taassurot uyg'otadi. Nafaqat yosh musavvirlar balki, san'atshunoslar uchun ham ustoz yaratgan kartinalari boshqacha tuyg'ular sari chorlaydi. O'ziga xos badiiy uslubga ega rassom birdaniga kelgani yo'q. O'zbekiston rangtasvirida milliy o'ziga xos chizgilarni izlash natijasida, Chingiz Ahmarov o'z yo'nalishi, yo'lini belgilab olishga astoydil kirishadi va monumental rangtasvir, portret janri qolganlaridan ustun keladi. Birin-ketin "Alpomish va Oybarchin", "Shirin", "Qizlar", "Mukarrama Turg'unboyeva portreti", "Rassom Rashid Temirov portreti", "A'lochi Zotova portreti", "Zulmatdag'i ziyo", "Shoira Zulfiya portreti", "Raqqosa", Alisher Navoiy lirikasiga bag'ishlangan rasmlar, "Mushoira", "Behzod huzurida" kabi rang-barang mavzudagi asarlar paydo bo'ladi.


Nodira, Shirin siymolarida rassom rafiqasi Shamsiro'y Hasanovaning o'zbekona go'zalligidan ilhomlanadi va shunday jumlalarni keltirib o'tadi; "Men Shamsiro'yning qator portretlarini ishlab ko'rganman. Alisher Navoiy nomidagi teatrga tasvir etganim obrazlarning barchasida Shamsiro'ydan ilhomolanman, desam mubolag'a bo'lmaydi. Biroq shulardan eng muvaffaqiyatlisi, 1943—1944-yillarda sevib tasvir etganim — "Shirin" asarim deb hisoblayman. Bu rasmida Shamsiro'y qiyofasi o'ychan, go'zal obraz siyemosiga mos tushganidan tashqari, Shirinning qandaydir kelgusidagi baxtsizligidan ham darak berib turganday" deb yozadi Chingiz Ahmarov.

"Men hech qachon asarlarimni miniyatyrada yaratishni maqsad qilmaganman. Men uni butun qalbim bilan sevaman, xolos. Benazir san'at maktabini yaratgan taniqli miniyatyrachilarining asarlarini astoydil o'rganaman. Bunda tasvirlangan voqealarning hayotiyligi, odamlar, tabiatning go'zalligi, ranglarning hayratlanarli uyg'unligi, rassom his-tuyg'ularining samimiyligi meni quvontiradi. Bu men uchun bitmas-tuganmas boylik, ilhomim, maktabim. Men uchun bu Italiyaning buyuk rassomlari Jottova Mazachcho san'atiga tengdir" deb aytgan. Kamoliddin Behzod davrida eng yuqori cho'qqisiga chiqqan miniyatURA san'ati vaqt o'tib Chingiz Ahmarov maktabida devorga ko'chdi va o'rni, shuhratini topa oldi. (Charos Nizomiddinova)

Chingiz Ahmarovning muvaffaqiyatli ishlaridan yana biri "Sug'd to'yi" hisoblanadi. Kompozitsiya markazida qadimgi ajdodlarimiz e'tiqodiga ko'ra, hayot ramzi bo'l mish quyosh fonida turgan kelin bilan kuyov tasvirlangan. 1971-yilda ishlangan "Xorazmcha raqs" nomli kartinasida raqqosa nafis harakatlarbilan raqsga tushayotgani, sochlari mayda o'rilgan holatda va go'zal, milliy uzun libosda yanada raqqosaning ko'rinishi inson e'tiborini tortadi. Kartina orqa fonida ko'k (moviy) rang ustunlik qiladi. Shu bilan birgalikda islimiy (o'simliksimon) naqshlarni ko'rish bilan birgalikda, kartina va orqa fon uyg'unlashuvini ham ko'ramiz.

"Chingiz Ahmarov milliy san'atimizning Kumush asriga asos soldi. Uning ijodiy uslubining ildizi Sharq miniyatursasi estetikasi bilan bog'liq bo'lib, rassom bu san'atga chuqur ehtirom bilan yondashgan. Chingiz Ahmarov Sharq miniyatursasi an'analarini uslublashtiruvchisi yoki davomchisi emas edi, chunki Ahmarov o'zgacha olam kartinasini yaratuvchi miniyaturaning asosiy kompazitsion idiomasidan deyarli foydalanmagan. Sharq miniyatursasi uchun xarakterli bo'lgan dog' varanglarning

contrast o'yini uning ijodida deyarli sezilmas edi. Shuningdek, rassom ichki tuyg'ulari asosida o'zining shaxsiy makon va estetikasini yaratdi va bu turli detal va figuralarga boy Sharq miniatyurasi kompazitsiyasiga zid edi. Rassom o'z ijodida mustaqillik davri tasviriy san'atiga xos madaniy va milliy o'ziga xoslikni oldindan sezib, uning rivojiga kuchli turtki berdi” .(*San'at jurnalidan: San'atshunos Akbar Hakimov*)



ChingizAhmarov



“Xorazmraqsi” (1971)

Chingiz Ahmarov bu kabi izlanishlari, intilishlari, ijoddan to'xtamasdan, biz kabi yosh ijodkorlar uchun ko'plab asarlarni me'ros qilib qoldirib ketgan. Aynan, ushbu yaratilgan asarlari uchun o'z o'rnda rassom rag'batlantirilgan. Jumladan, ‘‘Buyuk xizmatlari uchun’’nishoni, ‘‘Xalqlar do'stligi ordeni’’, ‘‘Hurmat belgisi ordeni’’, ‘‘O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi’’ kabi ordenlar sohibidir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Chingiz Ahmarov asarlari insonlarni ilhomlantiribgina qolmay, inson ruhiyatiga ham kuchli ta'sir o'tkazadi. Tomoshabinni qalbida, ongida o'zgacha taassurot uyg'otadi. Har xil janrlarda ijod qilib, unikal rassom sifatida xalqning ko'ngidan chuqur joy egallagan. Uning asarlari qalbmizning tub-tubida muhrlanib qoladi va uzoq yillar rassomlarga ijod va taqlid manbai sifatida xizmat qiladi.

Ushbu maqola bilan nima demoqchiman, hozirgi yosh ijodkorlar ham ustoz kabi tinimsiz ijod qilishsa, har qanday to'siqlarni, mashaqqatlarni yengib o'tsa o'z maqsadlariga erisha oladilar. Chingiz Ahmarov tasviriy san'atning mahobatli rangtasvir turida ijod qilsa ham bo'lar edi. Biroq, rassom ko'p qirrali ijodkor bo'lishni, yosh avlodlarga ilhom oladigan darajadagi noyob asarlarni me'ros qilib qoldirdi. U insonning asarlarini bittada ajratib olish mumkin. Negaki, ustoz o'z asarlarida ayollarni shu qadar nozik hamda nafis qilib tasvirlaganligi, ranglarning jimjimadorligi va shuningdek, portretlari ham boshqa rassomlardan farqli o'laroq, chetlari chiziqlar bilan tasvirlangan. Rassom o'zgacha uslub, texnikada ishlaganligi yoki bo'lmasa, miniatyura asarlarini mahobatli rangtasvirda gavdalantirgani yangilik bo'ldi. Kartinalarida ko'pincha havo rangdan ya'ni och hamda yengil ranglardan foydalanish bilan birgalikda

Sharq miniatyurasi an'analarini ham asarlarida aniq va yaqqol namoyon qiladi. Bu maqolani o'qib chiqish jarayonida, rassomning hayot yo'li, yaratgan nodir asarlari, mukofotlari va hokazalar kabi ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Garchi, Chingiz Ahmarov o'zgacha uslub ustida ishlagan bo'lsada, bu degani uning ishlaridan ko'chirish degani emas. O'z o'rnidagi bugungi kundagi yosh ijodkorlar ham o'z uslub hamda yo'naliishlarini xuddi ustoz kabi o'zgacha talqinda olib borishlari lozimdir.



Chingiz Ahmarov. A.Navoiy shogirdlari bilan.(1968-yil) Chingiz Ahmarov